

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
MINTAQAVIY BO'LIMI  
XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA'MUN  
AKADEMIYASI  
AXBOROTNOMASI**

Axborotnomma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo'jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**2024-10/1  
Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi  
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

**Xiva-2024**

**Bosh muharrir:**

*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.*

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**

*Hasanov Shodlik Bekpo ‘latovich, k.f.n., k.i.x.*

**Tahrir hayati:**

*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.  
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.  
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.  
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.  
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.  
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.  
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.  
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.  
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.  
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.  
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.  
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.  
Durdievayeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.  
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.  
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.  
Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.  
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.  
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.  
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.  
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.  
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.  
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc  
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.  
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.  
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d.  
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.  
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.  
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.  
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.  
Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.*

*Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.  
Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.  
Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.  
Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.  
Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.  
Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.  
Raximova Go‘zal Yuldashevna, f.f.f.d., dos.  
Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.  
Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.  
Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.  
Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.  
Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.  
Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.  
Safarov Alisher Karimjanovich, b.f.d., dos.  
Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.  
Sobitov O‘lmasboy Tojaxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.  
Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.  
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.  
Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.  
Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.  
Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.  
Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.  
Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.  
Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.  
O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.  
O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.  
Hajiyeva Maqsuda Sultanovna, fal.f.d.  
Hasanov Shodlik Bekpo ‘latovich, k.f.n., k.i.x.  
Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.  
Xudoyberganov Oybek Ikromovich, PhD, k.i.x.*

Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№10/1 (119), Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2024 y. – 295 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma’mun akademiyasi

**MUNDARIJA  
BIOLOGIYA FANLARI**

<b>Abdunazarova G.A., Negmatova S.T.</b> Indigofera ildizida tunganak bakteriyalar hosil bo‘lishiga bakteriya shtammlarining ta’siri	6
<b>Abduzairova D.Yu.</b> Turli juftlash variantlarida olingan qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘zilarida rang tekisligi ko‘rsatkichlari	9
<b>Akbarov F.I., Qosimov Z.Z., Po‘latov S.O., Qodirov U.X.</b> Surxondaryo viloyati tabiiy florasi endem turlarining o‘sish nuqtalari bo‘yicha topografik ko‘rsatkichlari tahlili	11
<b>Avazmetova I.R., Matyakubova Yu.A.</b> O‘zbekiston shimoli-g‘arbiy qismida tarqalgan quruqlik mollyuskalarining xo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan turlar tarkibi	17
<b>Bekbergenova Z.O., Sultanbaeva J.A.</b> Saksovul (haloxylon) o‘rmonlarida uchraydigan qattiqqanoltilar yoki qo‘ng‘izlar (Coleoptera) turkumi, tenebrionidae oilasi zararkunandalari	21
<b>Bekbergenova Z.O., Sultanbaeva J.A.</b> Saksovul (haloxylon) o‘rmonlarida uchraydigan ikkiqanoltilar (diptera) turkumi, cecidomyiidae oilasi gall hosil qiluvchi zararkunandalari	31
<b>Bekchanova M.X., Xudayberganov S.Sh.</b> Xorazm viloyati sharoitida chilonjiyda o‘simligining biologik xususiyatlari	36
<b>Bobonazarov G‘.Yo., Omonova N.R., Abdullayev O‘.R.</b> Qashqadaryo viloyati sharoitida tovuqlarni argas persicus kanalari bilan zararlanishi	38
<b>Boboyev S.B., Maxkamov T.X., Omarov S.A., Yordamova M.A., Eshchanov J.Y.</b> Toshkent vohasi sharoitida Colchicum autumnale L. ni introduksion bahosi	41
<b>Boboyev S.B., Maxkamov T.X., Yordamova M.A., Eshchanov J.Y.</b> Colchicum autumnale ning gullah biologiyasi	44
<b>Choriyev S.H., Xurramov A.Sh.</b> Surxondaryo vohasida yeryong‘oq o‘simligi nematoda turlarining dominantlik darajasi bo‘yicha tahlili	47
<b>Djambilov B.X.</b> Orenburg zotli uloqlarning sut emish davridagi ayrim klinik ko‘rsatkichlari	50
<b>Elmurodov A.B., Sodiqova M.B., Kamalova Z.Sh., Ziyayev Z.M.</b> Zanjabil hosildorligiga mineral o‘g‘itlarning ta’siri	53
<b>Ergasheva G.O., Naraliyeva N.M., Zafar M., Makhkamov T.X.</b> Diversity of dusts of some allergic plants of Andijan	56
<b>Ismatova Z.A., Kamolova Sh.N.</b> Jizzax viloyati baliqchilik xo‘jaliklari ko‘k-yashil suv o‘tlarining tarqalishi	62
<b>Jumanazarov H.O’., Abdullaev I.I., Aminov M.R.</b> Piyoz agrosenozi entomofaunasining tur tarkibi	64
<b>Jumanazarov H.O’., Aminov M.R., Xudayberganov M.S.</b> Piyoz agrosenozi fitofaglari va ularning zarari	68
<b>Mamataminova D.</b> Myosotis turkumi myosotis asiaticaning morfologiyasi va tarqalishi	73
<b>Matkarimova A.A., Matyoqubova M.K.</b> Artemisia absinthium ning unuvchanligi va ontogenez xususiyatlari	76
<b>Mavlonov O., Mirzayev U.</b> Samarcand viloyati sabzavot ekinlari meloydoginozi	79
<b>Mustafina F.U., Abdinazarov S.H., Xazratov A.T., Juraeva H.K., Janabaeva A.J.</b> Botanika bog‘i kolleksiyasidan ayrim turlarning in vitro to‘qima kulturasni va regenerant o‘simliklarning biologik activ moddalar faolligini o‘rganish	82
<b>Nasriddinova M.R.</b> Introduksiya sharoitida Thymus vulgaris L. (Lamiaceae) turining morfobiologik xususiyatlari	86
<b>Nurullayeva M.Sh., Yoqubov G‘.Q., Egamberdiyeva D.S., Masharipova Sh.J., Babajanov K.Sh.</b> Indigofera turkumiga kiradigan o‘simliklarning dorivorlik xususiyatlari	90
<b>Nurmetova F.R.</b> Sholi navlarida barg sathi indeksining hosildorlikga ta’siri	92
<b>Turanov M.</b> Olmos va kumushsimon rangbaranglikdagi qo‘ylardan olingan avlodlarda rangning o‘tish keskinligi hamda gul tipi va shakllar nisbatini baholash	96
<b>Tursunova N.M., Usmanov R.M., Amanov B.X.</b> Phaseolus Vulgaris L. turiga mansub boshlangich manbalar va F <sub>1</sub> -F <sub>2</sub> o‘simliklarida bitta dukkakdagisi urug‘lar soni belgisining irsiylanishi va o‘zgaruvchanligi	99

<b>Uralov U.B., Qudratov J.A.</b> Qorinoyoqli mollyuskalarining balandlik mintaqalar bo'yicha tarqalishi	102
<b>Бектурсынова Д.П., Мамбетуллаева С.М.</b> Анализ метеорологических показателей Республики Каракалпакстан (на примере Кунградского района)	105
<b>Бобоев С.Ғ., Набиева Н.В.</b> Помидор навларини унувчанлигини оширишда мутация жараёнидан фойдаланиш	108
<b>Валиева М.Н., Мирзаева Г.С., Мусаев Д.М.</b> ЎзР ФА Зоология институти энтомология коллекциясида йиртқич қандалалар (Heteroptera:Reduviidae) оиласи рўйхати	111
<b>Даминова Н.Э., Бешко Н.Ю., Қосимов З.Қ., Назаров Б.И.</b> Марказий Фарғона ва Ўрта Сирдарё ботаник-географик округлари дендрофлорасининг қиёсий таҳлили	116
<b>Жураева Х.К., Хазратов А.Т., Мустафина Ф.У., Абдиназаров С.Х.</b> Микроклональное размножение декоративных видов растений на примере клена платановидного Acer platanoides L. сорт Crimson king (Aceraceae juss.)	126
<b>Икромов У.И., Паттаева М.А., Расулов Б.А.</b> Azotobacter chroococcum XH2018 штамми экзополисахаридининг мис ( $Cu^{64}$ ) катионлари биосорбциясини баҳолаш	129
<b>Мусаев Д.М., Мирзаева Г.С., Искандаров А.И., Лебедева Н.И., Назаров Ш.Н., Валиева М.Н., Холматов Б.Р.</b> Шимолий Фарбий Ўзбекистон ҳақиқий қалқонли қандалаларининг(Heteroptera: Pentatomidae) биоэкологик ҳусусиятлари	132
<b>Нуралиев Н.А., Жабборова О.И.</b> Тажрибада тотал ўткир нурланиш таъсирида йўғон ичақдан ички аъзоларга транслокация бўлган микроорганизмларнинг аниқланиш параметрлари	136
<b>Розумбетов К.У.</b> Роль параметров строения тела в изменении тонуса вегетативной нервной системы в условиях дополнительного дыхательного сопротивления	144
<b>Саттарова Ф.Ю., Нишонов Б.Э., Сайдмахмудова Л.А.</b> Хоразм вилояти Тупроқкальва тумани кўлларининг гидробиологик ҳолати	151
<b>Тўхтамуродова М.Б.</b> Ўткир баргли сано (Cassia acutifolia.Del.) ва тўмтоқ баргли сано (Cassia obovata Collad) уруғларини унувчанлигини аниқлаш	160
<b>Холматов Б.Р., Искандаров А.И., Мусаев Д.М., Мирзаева Г.С., Медетов М.Ж., Назаров Ш.Н.</b> Шимолий Фарбий Ўзбекистон ҳақиқий қалқонли қандалаларнинг зоографик таҳлили	164
<b>Хуррамов А.Ш., Бобокелдиева Ш.А.</b> Сурхондарё воҳасининг ёнғоқ ўсимлигига учровчи нематодаларнинг фаунаси, экологияси	167
<b>Шамсиев А., Ирисметова Н.</b> Ўзбекистон шароитида дарахтсизон алоэ (Aloe arboréscens) доривор ўсимлигини очиқ ва ёпиқ усулда ўстириш учун субстратлар танлаш	170
<b>Қосимов З.З., Ақбаров Ф.И., Пўлатов С.О., Қодиров У.Х., Сотболдиев О.Э.</b> Иқлим ўзгаришининг Scutellaria villosissima потенциал тарқалишига таъсирини баҳолаш	173
<b>QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI</b>	
<b>Azizov B.G., Jo'rayev D.T.</b> Bahorgi bug'doy nav va tizmalarni o'simlik o'suv davriga havo haroratining ta'siri	178
<b>Azizov O.T., Orifova M.Sh., Jumaev B.M.</b> Bolalar qo'shimcha ozuqa mahsulotlari tarkibidagi vitamin D3 miqdorini yuqori samaradorli suyuqlik xromatografiyasi (YSSX) yordamida aniqlash	181
<b>Ibragimov B.B.</b> Quyonlarda bo'go'zlik davri davomiyligiga serpushtliligining ta'siri	185
<b>Israilov I.A.</b> Bahorda ekilgan soya navlari don hosildorligi va sifatiga ekish usuli va me'yorining ta'siri	188
<b>Muxtarova M.S.</b> O'zbekistonda fermer xo'jaliklari yerlaridan foydalanish tendensiyasi	192
<b>Norboyeva D.S., Yuldashev O.X.</b> Suv tanqisligi sharoitida tritikale nav namunalarining barglaridagi xloroplast pigmentlari miqdori	197
<b>Normaxmatov R., Tilavov X.M., Haydarov B.J., Madiyev J.H.</b> Tarkibida oltingugurt tutuvchi aminokislotalarning ahamiyati	199
<b>Satipov G.M., Nurmetova M.A.</b> Xorazm vohasi sharoitida kungaboqarning NS oliva F <sub>1</sub> naviga o'g'it meyyorini ta'sirini aniqlash	202
<b>Sodiqova M.B., Elmurodov A.B., Ziyayev Z.M.</b> Turli mintaqalarga mansub kuzgi bug'doy nav namunalarining sariq zang kasalligiga chidamliliginini fenotipik baholash	205

Kumushsimon	Olmos	52	54,5±6,91	13,2±4,69	7,2±3,58	10,2±4,20	10,2±4,20	4,7±2,93
	Kumushsimon	86	59,2±5,30	10,1±3,25	5,1±2,37	11,6±3,45	14,0±3,74	-
	Tillasimon	41	60,9±7,62	-	-	25,4±6,80	13,7±5,37	-

Qovurg‘asimon, yassi, dona va yol gullar salmog‘i mutanosib ravishda 8,7-14,5; 5,1-13,2; 10,2-25,4 va 4,5-14,0 foiz diapazondagi o‘zgaruvchanlik darajalarida uchrashi qayd etildi.

**Xulosa.** Ta’kidlash mumkinki, olmos rangbarangligidagi ota-onalarning irsiy salohiyatida mavjud bo‘lgan rangning kuchli o‘tish keskinligi avlodlarga ham kumushsimon rangbaranglikdagi ota-onalarga nisbatan kuchli darajada o‘tkazadi va ushbu holatdan seleksiya jarayonida samarali foydalanish maqsadga muvofiq. Shuningdek, barcha variant juftlashlarda olingan avlodlar gullarning teri sathida uchrash chastotasi bo‘yicha keng darajadagi geterozigotligi bilan xarakterlanadi. Ma’lum darajaga geterozigotlikning qisqarishi “olmos x olmos” va “kumushsimon x tillasimon” juftlash variantlarida kuzatildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mamatov B. Qizilqum sharoitida sur rangli qorako‘l qo‘ylarini samarali seleksiyalashning korrelyatsion asoslari. Falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. Samarcand, 2020, 42 bet.
2. Турганбаев Р.У. Каракалпакский породный тип каракулских овец окраски сур. Монография. Тошкент 2012, 164 с.
3. Рахимов А. Р., Беленко А. А., Игамназаров А. Выраженность окраски бухарского супа: Тр. ВНИИК. Т., 1991. С. 51-56.
4. Yusupov S.Yu. va boshqalar. “Qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo‘zilarni baholash (bonitirovka qilish)” bo‘yicha qo‘llanma. 2015 y.
5. Плохинский. Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва. 1969. 256 с.

UO‘K 635.652.2:581.19

#### PHASEOLUS VULGARIS L. TURIGA MANSUB BOSHLANGICH MANBALAR VA F<sub>1</sub>-F<sub>2</sub> O‘SIMLIKALARIDA BITTA DUKKAKDAGI URUG‘LAR SONI BELGISINING IRSIYLANISHI VA O‘ZGARUVCHANLIGI

N.M.Tursunova, tayanch doktorant, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq  
R.M.Uzmanov, prof., O‘zR FA G va O‘EBI, Toshkent  
B.X. Amanov, prof., Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Phaseolus vulgaris L. turining boshlang‘ich manbalari va F<sub>1</sub>-F<sub>2</sub> o‘simliklarida bitta dukkakdagi urug‘lar soni belgisi bo‘yicha olingan ko‘rsatkichlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra bitta dukkakdagi urug‘lar sonining eng yuqori ko‘rsatkichi Solnishko va Ravot navlarida (4,3-4,5 dona) va duragaylash asosida olingan F<sub>1</sub> Beybi Lima x Kalipso krasnaya kombinatsiyasida o‘rtacha ko‘rsatkichi 4,1±0,3 dona, dominantlik koeffitsiyenti esa ( $hp=2,0$ ) o‘ta dominant holatda irsiylanishi kuzatildi. O‘rganilgan F<sub>2</sub> o‘simliklarida geterozis holati saqlangan holda, bitta dukkakdagi urug‘lar soni yuqori bo‘lgan (6,1-7,0 dona) shakllar ajratib olindi.

**Kalit so‘zlar:** oddiy loviya, duragay, dukkak, geterozis, dominantlik koeffitsiyenti, variatsiya koeffitsiyenti, hosildorlik

**Аннотация.** В данной статье проанализированы полученные показатели по количеству семян в стручках растений F<sub>1</sub>-F<sub>2</sub> и исходные источники вида фасоли обыкновенной. По результатам исследования наибольшее количество семян в бобе выявлено у сортов Солнышко и Равот (4,3-4,5 шт.), а среднее количество семян в гибридной комбинации F<sub>1</sub> Бэби Лима х Калипсо, полученной на основе гибридизации, составляет 4,1 ± 0,3 единицы, коэффициент доминирования ( $hp=2,0$ ) наследовался в условиях сильного доминирования. Выделены формы с

высоким количеством семян в одном бобе (6,1-7,0 шт.) при сохранении состояния гетерозиса у изучаемых растений  $F_2$ .

**Ключевые слова:** фасоль обыкновенная, гибрид, боб, гетерозис, коэффициент доминирования, коэффициент вариации, урожайность.

**Abstract.** This article analyzes the obtained indices on the number of seeds in  $F_1$ - $F_2$  plant pods and the initial sources of the common bean species. According to the results of the study, the highest number of seeds in a pod was found in the Solnyshko and Ravot varieties (4.3-4.5 pcs.), and the average number of seeds in the  $F_1$  hybrid combination Baby Lima x Calypso, obtained by hybridization, is  $4.1 \pm 0.3$  units, the dominance coefficient ( $hp = 2.0$ ) was inherited under conditions of strong dominance. Forms with a high number of seeds in one pod (6.1-7.0 pcs.) were identified while maintaining the state of heterosis in the studied  $F_2$  plants,

**Key words:** common bean, hybrid, pod, heterosis, dominance coefficient, variation coefficient, yield.

**Kirish.** Dunyo bo'yicha oziq-ovqat ta'minida yuzaga kelayotgan muammolar va aholining o'sishi bilan o'simliklar hosildorligini oshirish zarurati kun sayin ortib bormoqda. Bu orqali mahsulotlarning sifatini va ozuqaviy qiymatini yaxshilash talab etiladi. Oziq-ovqatga bo'lgan ushbu ehtiyojni qondirish uchun genetik takomillashtirish dasturlarining asosiy maqsadi ko'plab poligenlar ta'sirida murakkab qimmatli xo'jalik belgilarga ega bo'lgan yangi genotiplarni olish zarur.

*Phaseolus vulgaris* (oddiy loviya) millionlab odamlar uchun ajoyib ozuqa manbai bo'lib, dunyoda soyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Bu ekin turi dunyo bo'ylab eng ko'p iste'mol qilinadigan dukkakli o'simlikdir va quritilgan loviya rivojlanayotgan mamlakatlarda eng ko'p ishlataladi [6, 8, 9].

Dukkakli ekinlarda hosildorlik ko'rsatkichlari dukkaklar soni va dukkakdagi urug'lar soniga ham bog'liq bo'ladi, dukkakda urug' soni qancha ko'p bo'lsa, albatta navning hosildorligi ham shuncha yuqori bo'lishi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda aniqlangan.

Oddiy loviya ustida olib borilgan molekulyar tadqiqotlarda dukkakdagi urug'lar soni, dukkak uzunligi va uning ko'ndalang kesimi, dukkak po'stlog'ining rangi kabi belgilar tahlil qilingan. Tajriba natijalari asosida o'simlikning 17 ta morfologik belgisi muvaffaqiyatli tavsiflab berilgan va 16 ta miqdoriy belgi ham o'rganilgan. Hosildorlikni belgilovchi dukkakdagi urug'lar soni 2,2 dan 8,3 gacha ekanligi, dukkak uzunligi esa 7,1-26,4 sm ekanligi kuzatilgan. Shuningdek, ushbu tajribada dukkak uzunligi va uning ko'ndalang kesmasi o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjudligini aniqlangan [5].

Bir qator olimlar bitta o'simlikdagi umumiy dukkaklar soni ko'rsatkichi yuqori bo'lganligini o'z izlanishlarida keltirib o'tganlar. Jumladan, 36 ta genotip (8 ta ota-oni va 28 ta  $F_1$  diallel chatishish) 2006 yilda Shimoliy-G'arbiy Efiopiyaning Mandura shahrida ikkita replikatsiya bilan tasodifiy to'liq yopiq sharoitda o'stirilgan. Tajribada bitta o'simlikdagi umumiy dukkaklar soni, umumiy urug'lar soni va 1000 dona urug' vazni kabi ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Boshlang'ich manbalar va duragaylarda o'rganilgan belgilar o'rtasida sezilarli statistik farq kuzatilgan. Umumiy kombinativ qobiliyat tufayli o'rtacha kvadrat ikkala belgi uchun muhim bo'lgan. Biroq, maxsus kombinativ qobiliyatning o'rtacha kvadrati umumiy dukkaklar soni va dukkakdagi urug'lar soni uchun muhimligi aniqlangan. Shunday qilib, bitta o'simlikdagi dukkaklar va urug'lar soni irsiylanishida qo'shimcha genlar muhim ahamiyatga egaligi qayd etilgan [7].

So'nggi yillarda oddiy loviya o'simligining mahalliy va xorijiy navlari, ularni chatishirish asosida olingan duragaylarning fiziologik, biokimiyoviy, xo'jalik belgilarini o'rganish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda [3].

Olib borilgan tadqiqotlarimiz asosida olingan  $F_1$ - $F_2$  o'simliklari dukkaklarida urug'lar soni belgisining irsiylanishi va o'zgaruvchanlik ko'lami qanday tarzda kechishi o'rganildi.

Tadqiqot obyekti va metodologiya. Tadqiqot Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakultetiga qarashli tajriba maydonida bajarildi.

Tadqiqot obyekti sifatida *Phaseolus vulgaris* L. turiga mansub Solnishko, Ravot, Beybi Lima, Kalipso krasnaya, Vir, Belya fasol navlari, hamda  $F_1$ - $F_2$  o'simliklaridan foydalanildi.

Olib borilgan tadqiqot ishlarida quyidagi usullar qo'llanildi:

Xo'jalik belgilaridan – o'simlik dukkaklaridagi urug'lar soni umumiy qabul qilingan usullarda [1], birinchi bo'g'in duragaylarida belgilarning dominantlik darajasini G.E.Beil va R.E.Atkins [4] ishlarida keltirilgan S.Wright formulasi bo'yicha aniqlandi:

$$hp = \frac{F_1 - MP}{P - MP}$$

hp – dominantlik koeffitsiyenti;

$F_1$  – duragayning o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi;

MP – ikkala ota–ona shakl belgisining o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi;

P – eng yaxshi ota yoki ona shakl belgisining o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi.

hp = 0 – dominantlik yo'q;

$0 < hp < \pm 1,0$  – oraliq dominantlik;

hp =  $\pm 1,0$  – to'liq dominantlik;

hp  $> \pm 1,0$  – o'ta dominantlik.

Ikkinci bo'g'in duragaylarida belgining avloddan-avlodga berilish ko'rsatkichi ( $h^2$ ) S.N. Warner [10] formulasi asosida hisoblab chiqilgan:

$$h^2 = \frac{\delta^2 F_2 - \frac{\delta^2 F_1 + \delta^2 P_1 + \delta^2 P_2}{3}}{\delta^2 F_2}$$

$\delta^2 F_1$ -  $F_1$  o'simliklarining dispersiyasi;

$\delta^2 F_2$ -  $F_2$  o'simliklarining dispersiyasi;

$\delta^2 P_1$ - ona o'simligining dispersiyasi;

$\delta^2 P_2$ - ota o'simligining dispersiyasi;

Olib borilgan barcha amaliy tajribalar asosida olingan miqdoriy natijalar ko'rsatkichlari katta va kichik tanlanmalarda statistik ishlovdan o'tkazildi [2].

**Tadqiqot natijalari.** Tajriba uchun tanlangan boshlang'ich manbalarning bitta dukkakdag'i urug'lar soni belgisini o'rganish natijasida yuqori ko'rsatkichlar Solnishko va Ravot navlarda (4,3-4,5 dona) kuzatilgan bo'lsa, Vir navida bitta dukkakdag'i urug'lar soni biroz past 4,3 dona, qolgan boshlang'ich manbalarda 3,5-4,1 donani tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval

Boshlang'ich manbalar va  $F_1$  o'simliklar dukkaklarida urug'lar soni belgisining irsiylanishi va o'zgaruvchanligi

№	Boshlang'ich manbalar	Dukkakdag'i urug'lar soni, dona				
		$\bar{x} \pm S_{\bar{x}}$	Limit	S	V%	hp
1	<b>Solnishko</b>	$4,5 \pm 0,2$	4,2 — 4,9	0,4	8	-
2	<b>Beybi Lima</b>	$3,9 \pm 0,2$	3,6 — 4,3	0,4	8,8	-
3	<b>Kalipso krasnaya</b>	$3,5 \pm 0,4$	2,9 — 4,2	0,7	18,7	-
4	<b>Ravot</b>	$4,3 \pm 0,2$	3,9 — 4,7	0,4	9,3	-
5	<b>Vir</b>	$2,2 \pm 0,3$	1,7 — 2,8	0,6	25,3	-
6	<b>Belya fasol</b>	$4,1 \pm 0,3$	3,7 — 4,8	0,5	14,1	-
<b><math>F_1</math> o'simliklar</b>						
1	<b>Ravot x Solnishko</b>	$4,2 \pm 0,2$	2,5 — 6,0	0,9	22,2	-2,0
2	<b>Solnishko x Ravot</b>	$4,0 \pm 0,2$	3,0 — 5,7	0,7	18,2	-4,0
3	<b>Solnishko x Kalipso krasnaya</b>	$4,1 \pm 0,2$	3,3 — 4,7	0,4	10,8	0,2
4	<b>Kalipso krasnaya x Solnishko</b>	$4,2 \pm 0,1$	3,6 — 4,6	0,5	11,6	0,4
5	<b>Beybi Lima x Kalipso</b>	$4,1 \pm 0,3$	3,5 — 4,8	0,5	13,3	2,0
6	<b>Kalipso krasnaya x Beybi Lima</b>	$3,9 \pm 0,1$	2,5 — 4,5	0,5	13,5	1,0
7	<b>Ravot x Beybi Lima</b>	$4,2 \pm 0,7$	3,0 — 4,7	0,7	15,8	0,5
8	<b>Ravot x Kalipso krasnaya</b>	$4,2 \pm 0,6$	2,9 — 5,1	0,6	15,2	0,7
9	<b>Solnishko x Beybi Lima</b>	$4,4 \pm 0,4$	3,7 — 5,6	0,8	19,2	0,7
10	<b>Beybi Lima x Vir</b>	$4,4 \pm 0,1$	4,1 — 4,6	0,2	5,6	1,6

O'rganilgan  $F_1$  o'simliklarda bitta dukkakdag'i urug'lar soni belgisi bo'yicha turli natijalar kuzatilib, duragay kombinatsiyalarda ijobjiy o'ta dominant, salbiy o'ta dominant va oraliq holatda irsiylanishi aniqlandi. Masalan, Beybi Lima x Kalipso krasnaya duragay kombinatsiyasida bitta dukkakdag'i urug'lar soni belgi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichi 4,1 dona, o'zgaruvchanlik amplitudasi 3,5-4,8 dona va shunga mos ravishda variatsiya koeffisiyenti 13,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, ushbu

belgi bo'yicha dominantlik koeffisiyenti ( $hp=2,0$ ) o'ta dominantlik holatda irsiylanishi kuzatildi.  $F_1$  Solnishko x Ravot resiprok kombinatsiyasida ( $hp=-2,0$ ;  $hp=-4,0$ ) salbiy o'ta dominant va Solnishko x Kalipso krasnaya resiprok kombinatsiyalarida ( $hp=0,2$ ;  $hp=0,4$ ) ijobiy oraliq irsiylanish holatlari aniqlandi.

2-jadval

F<sub>2</sub> o'simliklarida dukkanakdag'i urug'lar soni belgisining o'zgaruvchanlik ko'lami

№	F <sub>2</sub> o'simliklar	O'simliklar soni va foizi %	Dukkanakdag'i urug'lar soni, dona						X ± Sx	Limit	S	V %	h <sup>2</sup>
			2,0 – 3,0	3,1 – 4,0	4,1 – 5,0	5,1 – 6,0	6,1 – 7,0						
1	Ravot x Beybi Lima	174	9	39	74	45	7		$4,2 \pm 0,07$	2,5 - 6,7	0,9	18,8	63,8
		100	5	22	43	26	4						
2	Solnishko x Beybi Lima	219	21	63	91	40	4		$4,4 \pm ,06$	2,6 - 6,3	0,8	18,9	54,2
		100	9	29	42	18	2						
3	Ravot x Solnishko	187	12	40	103	32	-		$4,4 \pm ,05$	2,8 - 5,9	0,7	16,9	25,6
		100	6,4	21,4	55,1	17,1	-						
4	Solnishko x Ravot	205	2	40	105	49	9		$4,6 \pm ,05$	2,9 - 6,5	0,7	15,8	50,2
		100	1	20	51	24	4						
5	Ravot x Kalipso krasnaya	216	8	47	101	49	11		$4,6 \pm ,06$	2,5 - 6,9	0,8	18,3	55,6
		100	4	21,7	46,7	22,6	5						
6	Beybi Lima x Kalipso krasnaya	204	8	53	137	6	-		$4,3 \pm ,04$	2,8 - 5,6	0,8	12,3	59,2
		100	4	26	67	3	-						

*Phaseolus vulgaris* L. turiga mansub geografik uzoq navlarni duragaylash natijasida olingan F<sub>2</sub> o'simliklarida xo'jalik ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan bitta dukkanakdag'i urug'lar soni belgisi tahlil qilindi. F<sub>2</sub> o'simliklarida ushbu belgi bo'yicha o'zgaruvchanlik ko'lami 4-5 sinfni qamrab oldi (2-jadval). Jumladan, F<sub>2</sub> Ravot x Kalipso krasnaya kombinatsiyasida ijobiy transgressiv o'zgaruvchanlik mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin. Tahlil qilingan o'simliklarning eng ko'p foizi bitta dukkanakdag'i urug'lar soni belgisi 4,1-5,0 dona ko'rsatkichli modal sinflarga (shunga mos ravishda 46,7 %) to'g'ri keldi. Bundan tashqari, ushbu kombinatsiyada bitta dukkanakdag'i urug'lar soni belgisining nasldan naslga berilish koeffisiyenti  $h^2=55,6$  ga teng bo'ldi, bu esa tahlil qilingan belgining 55,6 % i duragay shaklning genotipiga, 44,4 % i esa tashqi muhit ta'sirida irsiylanishidan dalolat beradi.

F<sub>2</sub> Ravot x Solnishko kombinatsiyasining F<sub>1</sub> avlodida bitta dukkanakdag'i urug'lar sonining o'rtacha ko'rsatkichi 4,2 dona, F<sub>2</sub> o'simliklarida esa bu ko'rsatkich 4,4 donani tashkil etdi. Bitta dukkanakdag'i urug'lar soni belgisi bo'yicha o'rganilgan o'simliklarning eng ko'p foizi 4,1-5,0 dona ko'rsatkichli modal sinflarga (mos ravishda 55,1 %) to'g'ri keldi. Ushbu belgining nasldan naslga berilish koeffitsienti  $h^2=25,9$  ga teng bo'ldi, bu esa tahlil qilingan belgining 25,9 % i duragay shaklning genotipiga, 74,1 % i esa tashqi muhit ta'sirida irsiylanishi aniqlandi.

**Xulosa.** Olingan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, dukkanakdag'i urug'lar soni belgisi bo'yicha F<sub>1</sub> o'simliklarida asosan o'ta dominant, dominant va oraliq holatlari kuzatilgan bo'lsa, ya'ni boshlang'ich manbalarga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi. O'rganilgan F<sub>2</sub> o'simliklarida geterozis holati saqlangan holda, bitta dukkanakdag'i urug'lar soni yuqori bo'lgan (6,1-7,0 dona) shakllar ajratib olindi. Ajratib olingan transgressiv duragay shakllar genetik-selekcion tadqiqotlar uchun qimmatli boshlang'ich manba sifatida foydalanish yaxshi natija beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Дала тажрибаларини ўтказиш услублари. ЎзПИТИ. Тошкент. 2007. – В. 48-52.
- Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. // Москва. 1985. - С. 3-242.
- Турсунова, Н.М., Усманов, Р.М., Аманов, Б.Х. Наследование количества фотосинтетических пигментов в растениях F<sub>1</sub>, полученных на основе видов *Phaseolus vulgaris* L. и их гибридов. // Современная биология и генетика, №2(4), 2023. С. 22-32.
- Beil G.E., Atkins R.E. Inheritance of quantitave characters sorgum. // Jow State Journal of Science. 1965. — № 3. — P.35-37.
- García-Fernández, C., Campa A., Garzón A.S. et al. GWAS of pod morphological and color characters in common bean. // BMC Plant Biol. 2021. -P. 184-188.
- Gregory P.J., Wahbi A., Adu-Gyamfi J., Heiling M., Gruber R., Joy E.J. M., Broadley, M.R. Approaches to reduce zinc and iron deficits in food systems. // Global Food Security-Agriculture Policy Economics and Environment, 2017. -P. 1-10.

7. Mulugeta Atnaf, Hussein Mohammed, Habtamu Zelleke Inheritance of primary yield component traits of common beans (*Phaseolus vulgaris* L.): Number of seeds per pod and 1000 seed weight in an 8 × 8 diallel cross population. // International Journal of Genetics and Molecular Biology. 2013. — P. 42-48.
8. Nassary E.K., Baijukya F., Ndakidemi P.A. // Intensification of common bean and maize production through rotations to improve food security for smallholder farmers. Journal of Agriculture and Food Research, 2020. -P. 1-8.
9. Rawal V., Navarro D. The global economy of pulses. // FAO.2019. p. 190.
10. Warner S.N. A method for estimating Heritability // Journal Agronomy — 1982. - №44. - P. 427-430.

UO'K 594.3

## QORINOYOQLI MOLLYUSKALARING BALANDLIK MINTAQALAR BO'YICHA TARQALISHI

*U.B.Uralov, tayanch doktorant, Samarqand Davlat Universiteti, Samarqand  
J.A.Qudratov, doktorant, Samarqand Davlat Universiteti, Samarqand*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Qorinoyoqli molluskalarining Nurota tog' tizmasi mintaqalarida tarqalishi tajribalarimiz davomida aniqlandi. Nurota tog' tizmasida chuchuk suv va quruqli qorinoyoqli molluskalari relifning holatiga qarab tarqalish holatlari o'rganildi. Dengiz sathidan 500 m balandlikdan 2169 m balandlikgacha bulgan mintaqalarda qanday turlar mavjud ekanligi tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** arealiga, klassifikatsiya, biotop, populyatsiya, optimal, zichlig, tarqalish, optimal, relief.

**Аннотация.** В статье выявлено распространение брюхоногих моллюсков в районах Нурутинского хребта. Изучено распространение пресноводных и наземных брюхоногих моллюсков в Нурутинском хребте в зависимости от рельефной ситуации. От 500 м до 2169 м над уровнем моря.

**Ключевые слова:** ареал, классификация, биотоп, популяция, оптимум, плотность, распространение, оптимум, рельеф

**Abstract.** This article revealed the distribution of gastropod molluscs in the regions of the Nurota mountain range. The distribution of freshwater and terrestrial gastropod molluscs in the Nurota mountain range was studied depending on the relief situation. It was analyzed what species are present in the regions from 500 m to 2169 m above sea level.

**Key words:** area, classification, biotope, population, optimum, density, distribution, optimum, relief.

**Kirish.** Markaziy Osiyo mollyuskalarining balandlik mintaqalari bo'yicha tarqalishiga doir ma'lumotlar Z.I.Izzatullayev (1970,2018), K.K.Uvaliyeva (1990),A.Pazilov (1992,2005), D.Daminova (2002) ishlarida o'z ifodasini topgan.

Shuning alohida ta'kidlash joizki oxirgi 15-20 yil davomida olib borilgan ta'dqiqotlar asosida, ushbu tog' hududidan fan uchun yangi bo'lgan bir qator turlar qayd etib, 20 ga yaqin turlar arealiga oid yangi ma'lumotlar olingan, bu esa Nurota tog'lari qorinoyoqli mollyuskalarining balandlik mintaqalar bo'yicha tarqalishini yangi ma'lumotlarga asoslangan holda qayta ko'rib chiqishni taqqozo etmoqda .

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Nurota tog' tizmasi yuqori proterozoy davrida shakllangan va Markziy Osiyoning eng qadimgi, hamda past tog' tizmalridan biri sanalib, eng baland nuqtasi - Sarihayot ( Hayotboshi) bo'lib, uning balandligi dengiz sathidan 2169 metrni tashkil etadi .

Nurota tog' tizmasining xarakterli xususiyati shundaki, past tog'lar bo'lgani uchun ham , Markaziy Osiyo tog'lariga xos bo'lgan to'rtta balandlik mintaqasining barchasi (cho'l, adir, tog', yaylov,) shakllanmagan.

Q.Z.Zokirov (1969)klassifikatsiyasiga asosan, Nurota tog' tizmasi, cho'l, adir va tog'bandlik mintaqalarga bo'lingan va sgu mintaqalar asosida mollyuskalarining tarqalishi o'rganilgan .

### **Suv Mollyuskalarining Balandlik Mintaqalar va Biotoplar bo'yicha tarqalishi.**

Suv mollyuskalarining balandlik mintaqalari bo'yicha tarqalishida o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, Markaziy Osiyoda ularning balandlik mintaqalari bo'yicha tarqalishiga doir